Iqtisodiy rivojlanishning asosiy lokomotivlaridan biri hisoblangan kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini bandlik bilan ta'minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud masalalarni hal etishda muhim o'rin tutadi. Xususan, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ichki bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik va xususiy biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni¹ bu boradagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan muhim hujjatlardan biridir.

Mazkur farmon va boshqa tegishli qarorlarda kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari uchun soliq va moliyaviy qulayliklar yaratish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini yanada oshirish vazifasi ilgari surilgan.

Biroq amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani kabi omillar bilan to'qnash kelmoqda. Mazkur holatlar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va uning barqaror rivojlanish sur'atlarini kengaytirishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida mavjud ushbu masalalarni samarali hal etish uchun boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish, moliyaviy va kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Ayniqsa, hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishini rag'batlantirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ahamiyati shundan iboratki, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va mahalliy aholi farovonligini yuksaltirish mumkin. Shuningdek, ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda boshqaruv mexanizmlarining tutgan o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqot davomida mahalliy hokimiyat organlari, kichik biznes subyektlari rahbarlari, iqtisodchi ekspertlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida ekspert so'rovlari, statistik ma'lumotlar hamda boshqa tahliliy usullardan foydalanish nazarda tutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, boshqaruv samaradorligini ta'minlash hamda bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, Maykl Porter²ning raqobat strategiyasi nazariyalari biznes subyektlari uchun fundamental metodologik asos hisoblanadi. Porterning ta'kidlashicha, raqobat ustunligiga erishish uchun biznes subyektlari xarajatlarni minimallashtirish yoki differensiyalashuv strategiyasi orqali bozordagi mavqeini mustahkamlashi mumkin. Olim tarmoqdagi raqobat muhitini tahlil qilish uchun "beshta kuch" modelini taklif etgan bo'lib, unga tarmoq ichidagi raqobat darajasi, o'rinbosar mahsulotlar tahdidi, yangi raqobatchilar kirib kelish ehtimoli, yetkazib beruvchilarning ta'siri va xaridorlarning bozordagi mavqe kiradi. Mazkur yondashuv firma faoliyat

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов/ Майкл Е. Портер; Пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. - 454 с.



yuritayotgan tarmoqdagi imkoniyatlar va ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Porterning fikriga ko'ra, ushbu kuchlarning ta'siri qanchalik yuqori bo'lsa, kompaniyalarning narx va daromadni oshirish imkoniyatlari shunchalik cheklanadi. Aksincha, bu omillarning nisbatan muvozanatli bo'lishi korxonalar uchun qo'shimcha rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Amerikalik iqtisodchi Piter Druker boshqaruv innovatsiyalarining biznes rivojlanishidagi ahamiyatini chuqur o'rgangan va innovatsiyalar orqali tashkilot faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini asoslab bergan. Uning yondashuvida innovatsiya nafaqat yangi mahsulot yaratish, balki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va bozor talablariga moslashish vositasi sifatida talqin etiladi. Bu qarashlar kichik biznes subyektlari uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, ularning o'zgaruvchan bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Filipp Kotler marketing strategiyalarini shakllantirish va biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha muhim ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlarida bozorni segmentatsiya qilish, maqsadli auditoriyani aniqlash, iste'molchi ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda samarali marketing kommunikatsiyalarini yo'lga qo'yish kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyat omillaridan biri sifatida baholanadi. Kotlarning yondashuvlari kichik biznes uchun bozorda o'z o'rnini topish, mijozlar bazasini kengaytirish va mahsulot hamda xizmatlar jozibadorligini oshirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy olimlardan S. S. G'ulomov kichik biznes subyektlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. U O'zbekiston sharoitida boshqaruv mexanizmlarining o'ziga xos jihatlarni tahlil qilib, kichik biznes faoliyatida strategik yondashuv, resurslardan oqilona foydalanish va bozor talablariga tezkor moslashish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib bergan. Olimning fikricha, ishbilarmon iste'molchilar bilan raqobatda ommaviy xaridorga yo'naltirilgan arzon mahsulot strategiyasini yoki ixtisoslashgan xaridorlar uchun mo'ljallangan yuqori sifatli mahsulot strategiyasini tanlashi mumkin. Bunda tadbirkor investorni o'z mahsulotining raqobatchi tovarlarga nisbatan ustun jihatlarga ishonтира olishi lozim. Agar birinchi strategiya tanlansa, afzalliklar arzon xomashyo, kam transport xarajatlari va maqbul ishchi kuchi bilan izohlanadi. Agar ikkinchi strategiya tanlansa, unda mahsulotning sifati, yangiligi va iste'molchi uchun yaratilgan qo'shimcha qiymat asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi³.

Mazkur ilmiy qarashlar va tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi faoliyat samaradorligini kuchaytirishda muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarni o'zaro bog'liqlikda va yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida qiyosiy-statistik tahlil hamda ekspert baholash usullaridan keng foydalanildi.

Tizimli yondashuv kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy imkoniyatlari va tashkiliy rivojlanish omillarini kompleks tarzda o'rganishga xizmat qildi. Qiyosiy-statistik tahlil yordamida hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi hamda ularning rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Ekspert baholash usuli esa tadqiqot mavzusi bo'yicha amaliy tajriba va mutaxassislar fikrlarini umumlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi axborotnomasida keltirilgan kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlaridan, shuningdek, ekspert so'rovlari natijalaridan keng foydalanildi. Mazkur ma'lumotlar asosida kichik biznes subyektlari faoliyatining joriy holati baholandi, ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtani tashkil etdi. Shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 493,0 mingta, yakka tartibdagi tadbirkorlar 284,4 mingta, dehqon xo'jaliklari 395,6 mingta, oilaviy tadbirkorlik subyektlari 5,6 mingta, hunarmandlar 22,1 mingta hamda import tovarlari sotuvchilari 0,9 mingta bo'ldi.

Mazkur ko'rsatkichlar kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik biznesning hududlar bo'yicha keng tarqalganligi aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda uning muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi (1-jadval).

3 Tadbirkorlik va kichik biznes. O'quv qo'llanma. G'ulomov S.S. / "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent -2002. 365 bet.

1-jadval. Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni⁴ 2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik

Hudud	Jami	Shundan: kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)	YATT, dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar
O'zbekiston Respublikasi	1 201 612	492 993	708 619
Qoraqalpog'iston Respublikasi	56 942	24 466	32 476
Andijon	122 726	29 331	93 395
Buxoro	73 853	30 236	43 617
Jizzax	94 610	22 491	72 119
Qashqadaryo	68 367	37 899	30 468
Navoiy	40 970	21 018	19 952
Namangan	78 263	28 510	49 753
Samarqand	103 852	45 452	58 400
Surxondaryo	107 298	26 910	80 388
Sirdaryo	35 187	13 878	21 309
Toshkent viloyati	91 796	46 647	45 149
Farg'ona	93 394	41 870	51 524
Xorazm	91 884	27 746	64 138
Toshkent shahri	142 470	96 539	45 931

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 31,7 birlikni tashkil etdi. Hududlar kesimida ushbu ko'rsatkichning eng yuqori darajasi Jizzax viloyatida 61,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent shahrida 45,3 birlik, Xorazm viloyatida 44,8 birlik hamda Sirdaryo viloyatida 37,5 birlik qayd etildi. Mazkur holat ushbu hududlarda kichik tadbirkorlik faoliyatining nisbatan faol rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar–dekabr oylarida 82,4 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil etildi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo sohasiga to'g'ri kelib, ularning soni 30 205 tani tashkil etdi. Bundan tashqari, sanoat sohasida 10 490 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9 924 ta hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari yo'nalishida 7 262 ta yangi subyekt tashkil etilgan. Bu ko'rsatkichlar kichik biznesning iqtisodiyotning turli sohalarida faol shakllanib borayotganini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. Faoliyat yuritayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni⁵ 2026-yil 1-yanvar holatiga

	Jami	shundan:				
		Yakka tartibdagi tadbirkorlik	Dehqon xo'jaliklari	Oilaviy tadbirkorlar	Hunarmandlar	Import tovarlari sotuvchilar
O'zbekiston Resp.	708 619	284 440	395 559	5 575	22 117	928
Qoraqalpog'iston Resp	32 476	17 090	13 915	517	951	3
viloyatlar:						
Andijon	93 395	26 233	64 909	140	2 088	25
Buxoro	43 617	17 401	24 383	336	1 474	23
Jizzax	72 119	27 186	42 205	138	2 564	26
Qashqadaryo	30 468	9 767	19 583	74	1 033	11
Navoiy	19 952	7 650	11 805	44	447	6
Namangan	49 753	19 908	27 379	50	1 990	426


4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



Samarqand	58 400	23 327	33 301	271	1 496	5
Surxondaryo	80 388	29 792	47 930	551	2 090	25
Sirdaryo	21 309	8 025	12 775	40	465	4
Toshkent	45 149	16 710	27 465	120	845	9
Farg'ona	51 524	26 060	22 508	1 115	1 791	50
Xorazm	64 138	14 198	47 370	582	1 977	11
Toshkent sh.	45 931	41 093	31	1 597	2 906	304


2025-yilning yanvar-dekabrida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 923 514,6 mlrd so'mni tashkil qildi (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi hajmi dinamikasi⁶


2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 93,1%, qurilishda 75,6%, xizmatlar sohasida 47,2% va sanoatda 28,5% ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 383 886,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 34,9%ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,8%ni tashkil qildi (2-rasm).



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi dinamikasi⁷

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 400 503,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 83,0%ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,6%ni tashkil qildi (3-rasm).



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi⁸

6 Muallif ishlanmasi

7 Muallif ishlanmasi


8 Muallif ishlanmasi



2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,6 % ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.


2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5 % ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 33,9%ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida esa 40,3%ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-dekabrida nisbatan 6,4 birlikka ko'paygan (4-rasm).



4-rasm. Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi⁹ (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 58,8% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 53,5%ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 7,3%ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabriga kelib bu ko'rsatkich 6,2%ni tashkil etdi (5-rasm).



5-rasm. Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi¹⁰

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida ularning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyati yaqin uch oy ichida yaxshilanishini kutayotgan subyektlar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 49,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylariga kelib bu ko'rsatkich 51,2 foizga yetgan. Mazkur holat kichik biznes subyektlarida istiqboldagi iqtisodiy faollikka nisbatan ijobiy kutishlar kuchayganini ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyat o'zgarmasligini qayd etgan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 46,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning shu davrida bu ko'rsatkich 45,9 foizni tashkil etdi. Bu esa iqtisodiy muhitning barqarorligini baholayotgan subyektlar ulushi deyarli o'zgarmaganini anglatadi.


9 Stat.uz ma'lumotlari

10 Stat.uz ma'lumotlari



Ayni paytda, iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar–dekabr oylarida 4,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar–dekabr oylariga kelib ushbu ko'rsatkich 2,9 foizgacha kamaygan. Ushbu o'zgarish kichik korxona va mikrofirmalar orasida salbiy iqtisodiy kutilmalarning qisqarganini va ishbilarmonlik kayfiyatining nisbatan yaxshilanganini ko'rsatadi.


Bundan tashqari, kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yil IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrdagi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi savdo sohasida kuzatilib, 41,5 foizni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida bu ko'rsatkich 40,8 foizga, sanoat sohasida esa 38,4 foizga teng bo'ldi (6-rasm).



6-rasm. Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 56,7%ni, qurilishda – 55,1%ni va sanoatda – 54,8%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 7,3%ni, sanoatda – 6,8%ni va savdoda – 6,2%ni tashkil etdi (7-rasm).



7-rasm. Biznesga ishonch muhitini baholash¹¹



Kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha ulushini shakllantirish tarmoq boshqarmalarining tegishli uslubiy nizomlari asosida amalga oshiriladi. Qoidalarga muvofiq kichik tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini hisobga olgan holda, amaldagi narxlarda amalga oshiriladi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmlar o'zgarishi narx indeksi o'zgarishlarini inobatga olgan holda hisoblab chiqiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar hamda takliflarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrida kichik biznes subyektlari soni izchil o'sib bormoqda. Biroq hududlar, jumladan tumanlar kesimida o'sish sur'atlari hamda faoliyat samaradorligida ma'lum tafovutlar mavjud. Bu esa kichik biznesni rivojlantirishda hududiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, kichik biznes faoliyati asosan savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida jamlangani, ishlab chiqarish hamda logistika sohalarida esa rivojlanish imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmaganini kuzatish mumkin. Mazkur holat iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik biznes faoliyatini yanada muvozanatli rivojlantirish lozimligini anglatadi.

Tahlillar moliyalashtirish manbalari tarkibida bank kreditlari va xususiy mablag'larning asosiy o'rin tutayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, davlat subsidiyalari, grantlar va xorijiy investitsiyalar ulushini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlari, shakllanayotgan soliq tushumlari, shuningdek, ayollar va yoshlarning tadbirkorlikdagi faolligi hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kichik biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatli ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, har bir hududning, xususan, har bir tumanning mavjud resurs salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va iqtisodiy ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishlariga moslashgan kichik biznes klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, moliyalashtirish darajasi nisbatan past bo'lgan hududlarda imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, startap grantlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya mexanizmlarini yanada kengaytirish zarur. Bu kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida transport-logistika infratuzilmasini izchil rivojlantirish, ushbu yo'nalishda kichik biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda eksportga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirish lozim.

To'rtinchidan, kichik biznes subyektlari faoliyatida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, raqamli boshqaruv platformalari, onlayn hisobot tizimlari, elektron soliq nazorati va CRM tizimlaridan foydalanishni kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirish talab etiladi.

Beshinchidan, har bir hududda, ayniqsa tumanlar kesimida ayollar va yoshlar uchun alohida inkubatsion markazlar tashkil etish, ularning biznes ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va bandlikni oshirish imkoniyati kengayadi.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda kompleks va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish, hududlar rivojlanishini jadallashtirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi https://lex.uz/ru/docs/-5841063?utm_source
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini yanada oshirish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlariga ularni taqdim etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son Qarori, 2023-yil 24-may. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://www.lex.uz/uz/docs/-6898706>
3. Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press.
4. Drucker, P. F. (2006). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: HarperBusiness.
5. Kotler, P. (2003). Marketing Management. Upper Saddle River: Pearson Education.



6. G'afurov, U. V. (2020). Kichik biznesning boshqaruv mexanizmlari. Toshkent: Fan.
7. Qosimov, R. (2022). Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisod-moliya.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik statistik ko'rsatkichlari. Rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Main indicators of small business entities in the Republic of Uzbekistan. Rasmiy statistik to'plam.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Small business of Uzbekistan. Statistik nashr.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>